



IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYALARINING IJTIMOYIY- FALSAFIY ASOSLARI

Fattoyeva Orzigul Normamadovna

assistent, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti,

orzugulfattoyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15721715>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 15-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 23-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

individual ta'lim trayektoriyasi, ijtimoiy-falsafa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, individual ta'lim, raqamli muhit, qadriyatlar.

ABSTRACT

Maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati, uning ijtimoiy ong shakllanishiga ta'siri, madaniy va ijtimoiy kontekstdagi o'rni falsafiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, individual trayektoriyalarni shakllantirishda ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va zamonaviy texnologik muhitning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

Zamonaviy davrda ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida o'z aksini topmoqda. Har bir talabaning bilim olish sur'ati, intellektual salohiyati, ijtimoiy tajribasi turlicha bo'lgani sababli, ta'lim jarayonida individual trayektoriyalarni shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday yondashuvning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil etish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatning ongli, faol va mas'uliyatli a'zolarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi [Karimov, 2023.42].

Individual ta'lim trayektoriyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati haqida fikr yuritishdan oldin, bu so'zga ta'rif bersak, individual ta'lim trayektoriyasi – bu shaxsning o'ziga xos ta'lim yo'li bo'lib, u o'z ehtiyojlari, qiziqishlari va salohiyatiga mos holda shakllanadi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, bu jarayon insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi rivojiga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, har bir insonning o'zligini anglash, dunyoqarashni shakllantirish va jamiyatdagi o'rnini topishida individual ta'lim trayektoriyalarining ahamiyati beqiyosdir [To'xtayev, 2022.17].

Jamiyat taraqqiyoti uchun har bir a'zoning shaxsiy intellektual rivoji muhim sanaladi. Bu esa, ta'lim tizimini standartdan chiqib, individuallashtirilgan, ijtimoiy ongga tayanadigan modelga o'tkazishni talab qiladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ta'limda individuallikni bir-biridan o'xshash va farqli jihatlariga aniqlik kiritadigan bo'lsak, Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ta'limdagi individuallik bir-biri bilan bevosita bog'liq, lekin ularning maqsadi va qo'llanish sohasi jihatidan ayrim farqlari mavjud. Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ta'limda individuallikning bir-biriga bog'liqligi: avvalo, bunda inson markaziy nuqtada turadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, psixologiya, sotsiologiya, tarix, pedagogika va boshqa.) inson, uning fikri, jamiyatdagi o'rnini, axloqi va ongini o'rganadi. Shuningdek, ta'limda

ham har bir shaxsning qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlariga qarab yondashish (individuallik) asosiy tamoyildir.

Har ikkala soha shaxsning o'zini anglashiga, ma'naviy va intellektual rivojiga xizmat qiladi. Gumanitar fanlar bu jarayonni nazariy jihatdan asoslab bersa, ta'lim esa uni amalda hayotga tatbiq etadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyat va shaxs to'g'risidagi bilimlarni ishlab chiqadi, ta'lim esa bu bilimlarni individuallikka moslashtirib, o'quvchiga yetkazadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ta'limda individuallikni bir-biridan farqli jihatlari:

Ijtimoiy-gumanitar fanlar inson, jamiyat, madaniyat, tafakkur, qadriyatlar va axloqiy muammolarni o'rganadi. Ta'limdagi individuallik esa har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyati, ehtiyoji, va o'rganish uslubiga qarab ta'limni moslashtirishga qaratilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning maqsadi – inson va jamiyat haqidagi bilimlarni ishlab chiqish va tahlil qilishdir. Ta'limdagi individuallik esa – har bir o'quvchiga mos o'quv yo'nalishini belgilab, uning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashni ko'zlaydi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar ko'proq nazariy, tahliliy va falsafiy yondashuvga ega bo'lsa, ta'limdagi individuallik amaliy va moslashtiruvchi yondashuvni talab qiladi. Bu yerda pedagogik va psixologik uslublar muhim rol o'ynaydi.

Qo'llanish sohasi farqi:

Ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy tadqiqotlar, nazariy izlanishlar va jamiyatdagi muammolarni tushuntirish uchun qo'llaniladi. Ta'limdagi individuallik esa to'g'ridan-to'g'ri o'quv jarayonida, pedagogik faoliyatda amalda qo'llaniladi.

Subyektlar orasidagi farqi:

Ijtimoiy-gumanitar fanlar umumiy inson va jamiyat tushunchalari bilan ishlaydi. Ta'limdagi individuallik esa konkret o'quvchi yoki talabaning individual ehtiyojlari va xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar – falsafa, tarix, sotsiologiya, psixologiya va boshqa shu kabi yo'nalishlar – insonni va uning ijtimoiy hayotdagi faoliyatini o'rganadi. Ushbu fanlar talaba shaxsiyatini shakllantirish, uning tanqidiy fikrlashi, madaniy identiteti, axloqiy qarashlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa bu jarayonni yanada samarali qiladi.

Individual trayektoriyalar orqali talaba o'zini jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy mas'uliyatini chuqurroq anglaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ongli fuqarolik pozitsiyasi shakllanishiga zamin yaratadi [Rahmatov, 2024.15].

Bugungi kunda raqamli muhitda individual yondashuvning ijtimoiy ta'siri ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ta'lim tizimiga joriy etilishi individual trayektoriyalarni yanada keng imkoniyatlar bilan boyitdi. Bugungi kunda raqamli platformalar orqali shaxs o'zining bilim olish yo'lini mustaqil shakllantirishi, individual reja asosida rivojlanishi mumkin. Bu holat ijtimoiy ongning yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keladi, ya'ni inson axborotni tanlash, tahlil qilish va undan oqilona foydalanish madaniyatini egallaydi [Islomov, 2023.28].

Raqamli vositalar orqali ta'lim olish ijtimoiy tarmoqlar, virtual hamjamiyatlar orqali interaktiv fikr almashinuviga olib kelmoqda. Bu esa ijtimoiy tafakkurning dinamik shakllanishini rag'batlantiradi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim zarurati qanchalik muhim? Raqamli davrda har bir o'quvchi yoki talabning o'rganish uslubi, tezligi va qiziqishlari turlicha. Shu bois, bir xil, standart yondashuv samaradorligini yo'qotmoqda. Individual ta'lim trayektoriyasi esa o'quvchining shaxsiy ehtiyoj va salohiyatiga mos yo'lni tanlashga imkon beradi.

Raqamli vositalar individual yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi

Bugungi kunda masofaviy ta'lim platformalari, onlayn kurslar, interaktiv simulyatsiyalar kabi raqamli texnologiyalar yordamida: o'quvchining darajasi aniqlanadi, unga mos topshiriqlar avtomatik ravishda taklif etiladi, ta'lim jarayoni real vaqt rejimida kuzatiladi va tuzatiladi. Bu esa ijtimoiy-gumanitar fanlar (masalan, tarix, falsafa, psixologiya)da murakkab mavzularni shaxsga mos tempda o'rganishga imkon beradi.

Tanqidiy fikrlash va yaratuvchanlikni rivojlantirishda ham raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida o'quvchilardan tanqidiy tahlil, mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror chiqarish bo'yicha ko'nikmalarni hosil qilish imkoniyati tug'iladi. Individual ta'lim trayektoriyasi esa bu ko'nikmalarni har bir talabning tayyorgarligiga mos holda rivojlantirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar esa bunga kerakli materiallar va interaktiv vositalarni taqdim etadi.

Demokratik ta'lim muhitini yaratish: raqamli texnologiyalar yordamida ta'limda inson markaziy qadriyatga aylanadi. Bu holat ijtimoiy-falsafiy jihatdan muhimdir, chunki bu orqali ta'lim:

shaxs erkinligi,

teng imkoniyatlar,

individual qiziqishlarni hurmat qilish kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda individual ta'lim trayektoriyasini qo'llash raqamli texnologiyalar davrida:

talabning bilim olish sifatini oshirishga, ularni jamiyatdagi faol va ongli ishtirokchiga aylantirishga, insonparvar va zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishga to'g'ri yo'naltirilsa ko'zlangan maqsadga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalarini joriy etish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki ijtimoiy ong, shaxsiy erkinlik, mas'uliyat kabi falsafiy tushunchalarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim. Shu bois bu yondashuv nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy asosda ham chuqur o'rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. "Zamonaviy ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv" – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023. – 95 b.
2. To'xtayev M. "Falsafa va jamiyat: zamonaviy talqinlar" – Samarqand: Imkoniyat, 2022. – 112 b.
3. Rahmatov O. "Ta'limda individuallik va ijtimoiy ong evolyutsiyasi" // "Ijtimoiy fanlar yutuqlari" jurnali. – 2024. – №1. – B. 12–18.
4. Islomov D. "Raqamli transformatsiya va ta'lim: yangi yondashuvlar" – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – 87 b.